

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№5 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-5>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шнукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna O‘ZBEK TILI AUDIOKORPUSI UCHUN PRAATNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI.....	5
2. Kuchkorov Khoshimjon Khasanzoda SOME CONSIDERATIONS ON THE UZBEK TRANSLATION OF THE WORK OF THE ALCHEMIST (ON THE EXAMPLE OF THE TRANSLATION OF AKHMAD OTABOY).....	11
3. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o‘g‘li SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	18
4. Eshboltayev Bobur Jo‘rayevich BOLALAR REKLAMA MATNLARINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	23
5. Qurbonova E‘zoza HUQUQSHUNOSLIKKA DOIR TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARDA POLIFUNKSIONALLIK MASALASI.....	27
6. Abduxamidova Dilafruz Abduxabirovna TILNING TAFAKKURGA TAFAKKURNING TILGA TA‘SIRI.....	33
7. Usmonova Zarina Habibovna THE UNIQUE ASPECTS OF TRANSLATION IN ENGLISH SCIENCE FICTION.....	38
8. Valieva Noiba Abbasxonovna TIL VA JAMIYAT O‘RTASIDAGI UZVIY BOG‘LIQLIK XX ASR DOLZARB MASALASI SIFATIDA.....	43
9. Dilorom Ikramovna Hakimova “NAFS” KONSEPTINING LINGVOPRAGMATIK TAVSIFI VA TASNIFI.....	49
10. Xasanova Shaxzoda FE‘L FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASI.....	54
11. Ойбек Бектемирович Абдимўминов БМТ ИСЛОХОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	60
12. Хасанова Феруза Мирзабековна, Аҳмедов Нодирбек Алиевич ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА С КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА.....	67
13. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ СОСТАВА И СТРОЕНИЯ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО СЛОВА ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП.....	74
14. Saidvaliyev Farrukh Saidakramovich, Subkhanova Aziza Khabibulla kizi ROLE OF ANTIDEPRESSANTS IN REDUCING THE FREQUENCY AND DURATION OF MIGRAIN HEADACHES.....	80
15. Ишанкулова Нилуфар Ташкентовна HEMIS TILI FEЬЛЛАРИНИНГ АКЦИОНАЛ ТАСНИФИ.....	85
16. Jabborova Dilafruz Ismatullo kizi USING DIGITAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE FINANCE STUDENTS’ WRITING COMPETENCE.....	91
17. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	94
18. Maftuna Kamarova Umar qizi KOREYS TILI O‘QITUVCHILARINING O‘QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA FLIPPED LEARNING TEXNOLOGIYASINING O‘RNI.....	99

19. Shoxida Ulugova Shoxruxovna LISONIY OBRAZ YARATISHDA DISKURSNING KOGNITIV-SEMANTIK VAZIFASI.....	104
20. Рашидова Камила Ахмаджонова ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	109
21. Тошбекова Дилором Исмоиловна, Халимова Нодири Бахронкуловна РУССКАЯ ФРАЗЕОЛОГИЯ И КУЛЬТУРНЫЙ КОНТЕКСТ: АНАЛИЗ УСТОЙЧИВЫХ ВЫРАЖЕНИЙ, ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК, ИХ ПРОИСХОЖДЕНИЕ, РАЗВИТИЕ И РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	116
22. Bakhronova Dilrabo Keldiyorovna, Umirova Dilnoza PRAGMATIC FEATURES OF PHRASES IN IAN MCEWAN’S NOVELS.....	120
23. Ikramova Kamola Shuhratovna THE IMPORTANCE OF MYTHOLOGIES, ARCHETYPES, AND MYTHIC UNITS IN THE CREATION OF A FEMALE IMAGE IN NOVELS “PRIDE AND PREJUDICE” BY JANE AUSTEN AND “O’TGAN KUNLAR” BY ABDULLAH QODIRIY.....	124
24. Buranova Madina Uktamovna, Ruziyeva Umida Abryukul kizi SEMANTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS OF ANTHROPOCENTRIC IDIOMS IN CONTEMPORARY ENGLISH LITERATURE.....	129
25. Ergashova Baxora Sayfillo qizi ITALYAN XALQ ERTAKLARINING TARIXIY TARAQQIYOTI.....	136
26. Muhtarova Nigina THE USE OF AUTHENTIC VIDEO MATERIALS TO IMPROVE LANGUAGE LEARNING THROUGH COMMUNICATIVE TEACHING.....	141
27. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O’RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	151
28. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o’g’li SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	157
29. Рашидова Камила Ахмаджонова ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	162
30. Ikromova Nigina Oybekovna THE EFFECT OF COGNITIVE LOAD ON THE TRANSLATOR: THE ROLE OF PSYCHOLINGUISTIC PROCESSES IN TEXT TRANSLATION.....	169
31. Эргашева Дилноза Тохировна АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА.....	175
32. Nasiba Azizova THE CONCEPT OF LINGUISTIC PERSONALITY IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI.....	180




UDK: 81'27

Valieva Noiba AbbasxonovnaToshkent davlat sharqshunoslik
universiteti o'qituvchisi, (PhD)

naying1564@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0003-0666-5353>

Taqrizi ostida: prof., (DSc.) Nasirova Saodat Abdullayevna

**TIL VA JAMIYAT O'RTASIDAGI
UZVIY BOG'LIQLIK XX ASR DOLZARB MASALASI SIFATIDA** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14799698>**ANNOTATSIYA**

Til bu insonning muloqot quroli, jamiyatda verbal yoki noverbal ko'rinishda uchraydi. Til axborot uzatuvchi bo'lib, uning yordamida inson o'z tajribasini o'zi yashab turgan jamiyatning boshqa a'zolari bilan baham ko'rishi va ko'nikmalarini keyingi avlodlarga qoldirishi mumkin. Demak, ma'lum bir hududda yashovchi insonlar uyushmasi madaniyatidan kelib chiqib, ijtimoiy muhitidan kelib chiqib tilning turli ko'rinishini namoyon qiladi. Mazkur maqolada tilni ijtimoiy omil bilan bog'liq masalalarini ko'rib chiqamiz. Aslida til jamiyatni jamiyat esa tilni o'zida namoyon qilishi haqidagi fikrlar avvaldan mavjud bo'lgan biroq, aynan tilshunoslar tomonidan o'rganilmagan. Til va jamiyatning uzviy bog'liqligi XX asrga kelib dolzarb masalaga aylangan va o'rganila boshlangan.

Kalit so'zlar. Jamiyat, verbal, noverbal, sotsiolingvistika, til, makro- sotsiolingvistika, mikrosotsiolingvistika.

Валиева Ноиба Аббасхоновна

Ташкентский государственный университет востоковедения

Преподаватель университета (PhD)

naying1564@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0003-0666-5353>

Рецензирование: проф., (DSc.) Насирова Саодат Абдуллаевна

АННОТАЦИЯ

Язык – это человеческое оружие для коммуникаций, встречающееся в обществе в форме вербального или невербального. Язык – это передатчик информации, с помощью которого человек может поделиться своим опытом с другими членами общества, в котором он живет, и передать свои навыки последующим поколениям. Это означает, что объединение людей, живущих на той или иной территории, проявляется в различных проявлениях языка в зависимости от их культуры и социального окружения. В этой статье мы рассмотрим вопросы языка как социального фактора. На самом деле, идея о том, что язык представляет общество,

а общество манифестирует язык, существовала и раньше, но не изучалась лингвистами. Неразрывная связь языка и общества стала актуальным вопросом к XX веку.

Ключевые слова. общество, вербальное, невербальное, социолингвистика, язык, макросоциолингвистика, микросоциолингвистика.

Valieva Noiba Abbaskhonovna

Tashkent State University of Oriental Studies

University Lecturer (PhD)

naying1564@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0003-0666-5353>

Review: Prof., (DSc.) Nasirova Saodat Abdullaevna

ANNOTATION

Language is a human weapon for communication, found in society in the form of verbal or non-verbal. Language is a transmitter of information through which a person can share his experience with other members of the society in which he lives, and pass on his skills to subsequent generations. This means that the association of people living in a particular territory manifests itself in different manifestations of language depending on their culture and social environment. In this article, we will consider the issues of language as a social factor. In fact, the idea that language represents society and society manifests language has existed before, but has not been studied by linguists. The inseparable relationship between language and society became a hot issue by the twentieth century and began to be studied.

Keywords. society, verbal, non-verbal, sociolinguistics, language, macrosociolinguistics, microsociolinguistics.

KIRISH. Til bu insonning muloqot quroli, jamiyatda verbal yoki noverbal ko‘rinishda uchraydi. Til axborot uzatuvchi bo‘lib, uning yordamida inson o‘z tajribasini o‘zi yashab turgan jamiyatning boshqa a‘zolari bilan baham ko‘rishi va ko‘nikmalarini keyingi avlodlarga qoldirishi mumkin. Shu bois ham tilning rivojlanishi jamiyatning taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mazkur maqola doirasida (V. I. Belikov, L. P. Krisin, Maxanbet Djusupov) sotsiolingvistika fani rivojlanish tarixi va hozirgi kundagi metodlari, yo‘nalishlari yoritilgan. Maqolada tavsifiy tahlil usuliga murojaat etildi.

ASOSIY QISM. Jamiyatdagi o‘zgarishlar tilda kechroq o‘z aksini topadi. Til paydo bo‘lmaganda, insoniyat ibtidoiy darajada qolishi mumkin edi. Aslida til va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarning tabiati haqida turlicha qarashlar mavjud. Ba‘zi olimlar tilning rivojlanishi va mavjudligi jamiyatning rivojlanishi va mavjudligi bilan to‘liq belgilanadi deb hisoblashadi [6]. Boshqa olimlar esa til bu o‘z-o‘zidan rivojlanadi va ishlaydi, agar til qonuniyatlari va lingvistik faktlarni ijtimoiy sabablar bilan tushuntirishga urinsak bu faqat “lingvistik metodologiyaning qulashi”ga (E. Kurilovich) dalil deb hisoblashadi. Ba‘zi amerika va yevropalik olimlar esa Sepir-Uorf gipotezasiga tayangan holda tilning o‘ziga xosligi ma‘lum bir jamiyatdagi ma‘naviy-madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi va tilda namoyon bo‘ladi kabi fikrlarni keltirishadi. Demak, hozirgi kunga qadar yagona bir fikrga kelinmagan. Fikrimizcha, til har vaqt, har zamonda jamiyat bilan bog‘liq holda rivojlangan, jamiyat tilni tubdan o‘zgartira olmaydi, lekin uning yo‘nalishini va o‘zgarish bosqichlarini tezlashtirishi yoki aksincha sekinlashi mumkin. Hozirgi zamonga kelib tilning jamiyatga ta‘siri tezlashganini kuzatish mumkin. Bunga sababini ijtimoiy tamoqlar deb ko‘rsatsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Til va jamiyat tilning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va faoliyatining ijtimoiy mohiyatini, uning jamiyat bilan aloqalari xarakterini, jamiyatning ijtimoiy qatlam va guruhlariga bo‘linishiga muvofiq tilning ham ijtimoiy farqlanishini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy tilshunoslikning markaziy o‘rganilayotgan masalalaridan biri hisoblash mn. Til va jamiyat o‘rtasidagi aloqa ortida:

- tildan foydalanishdagi ijtimoiy farqlarini o‘rganish ya‘ni tilning ijtimoiy tabaqalanishi bo‘lib, u jamiyatning ijtimoiy turli xilligidan kelib chiqadi;
- tilning turli xil qo‘llanish sohalari bilan bog‘liq funktsional xilma-xilligi;

- ikki va ko‘p tilli jamiyatlardagi tillarning o‘zaro bog‘liqligini;
- tillardan birining millatlararo aloqa vositasi sifatidagi vazifalari va shartlari, shakllarini o‘rganish;
- zamonaviy rivojlangan milliy tillarni hududiy va ijtimoiy dialektlarga ajratish, adabiy tilni ijtimoiy va funksional jihatdan eng muhim lingvistik shakl sifatida aniqlash;
- ba‘zi jamiyatda tilning “erkak” va “ayol” variantlari mavjudligi;
- shu bilan birga jamiyatning tilga ta’siri kabi masalalarni o‘rganish yotadi.

Soddaroq qilib tushuntiradigan bo‘lsak, jamiyatning tilga bevosita va bilvosita ta’sirini o‘rganadi. Va qay darajada ta’sir qilayotganini tahlil qiladi. Ijtimoiy kundalik masalalar bilan bog‘liq bir misolni keltirsak. Oddiygina “marafon” so‘zini olsak, 20 yil avval marafon yengil atletikada 42km 195m ga teng uzundan-uzoq yugurish masofasi (Marafon qishlog‘idan yugurib kelgan matonatli jangchi sharafiga shunday nomlangan) kabi ma’nosi hammaga ma’lum bo‘lgan. Hozirgi kunga kelib esa sport bilan bog‘liq ma’no qisman torayib, estrada va boshqalar maqsadlarda uyushtiriladigan, uzoq davom etadigan, ko‘p bosqichli chora-tadbirlar (reportajlar, radio-eshittirish va teleko‘rsatuvlar orqali yoritiladi) tadbirlar nazarda tutiladi[5]. Demak, jamiyatga raqamlashtirilgan davr ortida yangi tushuncha, qarash kirib keldi va bu sekin tilda ham o‘z aksini topdi.

Nega aynan XX asrga kelib bu masala chuqurroq o‘rganila boshlanganini quyida ko‘rib chiqsak. Til va jamiyat o‘rtasida bog‘liqlik borligini, bir-biriga ta’siri haqida XVII asr boshlarida yozma manbalardan birida ispaniyalik o‘qituvchi Gonsalo de Korreas mazkur muammo haqida aytib o‘tgan. U o‘z kuzatuvlari natijasida turli shevalardan tashqari yosh, jins va tabaqalanishdan kelib chiqib, jamiyatda ijtimoiy nomutanosiblik mavjud ekani haqida aytib o‘tadi, lekin bu masala chuqurroq o‘rganilmaydi. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga kelib tilshunoslikda katta o‘zgarishlar, yangiliklar ro‘y beradi. Ikkinchi yarmida esa til nima emas, ba’lki u qanday vazifani bajaradi degan savollar markaziy masalaga aylanadi. Inson til markazida ya’ni antroposetrik qarash paydo bo‘ladi. XIX asr ikkinchi yarmida tilni aniq bir tizim sifatida o‘rganadiganlar F.F.Fortunatov(1848-1914) tarafdorlari bo‘lib, rus tilshunosligida strukturalizm yo‘nalishida izlanishlar olib borgan. Biroq, bunga teskari Boduen de Kortune(1845-1929) jamiyatdagi ma’lum bir tilda so‘zlashuvchilar muloqat tilini o‘rgandi va tilni xalqdan, jamiyatdan alohida o‘rganish aniq ma’lumot bera olmasligini aytib o‘tadi (ekstralingvistika, intralingvistika). Bundan ko‘rinadiki, tilga jamiyatning ta’siri aslida har doim ham bo‘lgan, biroq an’anaviy tilshunoslikda buni ekstralingvistika va intralingvistika deb atagan. Tilda o‘zgarishlar ro‘y bersa, demak til bilan barobar jamiyatda ham katta o‘zgarishlar ro‘y beradi. Masalan, inqiloblar, Ikkinchi jahon urushidan so‘ng geosiyosat o‘zgarishi, yangi davlatlar paydo bo‘lishi, jamiyatda turli yangi so‘zlar, o‘zlashmalar, yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida migratsiyaga yo‘l ochdi, ortidan esa madaniyatlar to‘qnashuviga, ikki va undan ortiq (bilingvizm)tilda ish yurituvchi davlatlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Yana bir sabablaridan biri jamiyat tushunchasi XIX asrdan muomalaga kirganidir. Unga qadar “jamiyat”, “jamo’a” yoki “sotsium” tushunchalari boshqa ilmiy tushunchalar orqali ifodalangan.

Jamiyat arabcha “jam‘a” dan yasalgan bo‘lib, kishilarni turli darajada va maqomda olingan umumiylikni ifodalaydi. Jamiyat so‘zi keng qamrovli bo‘lib:

1. Tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida moddiy boyliklar yaratishning muayyan usullari va muayyan ishlab chiqarish munosabatlari bilan xarakterlanadigan ijtimoiy munosabatlar majmui. Masalan feodal jamiyat.
2. Biror maqsadda tuzilgan ixtiyoriy birlashma, ijtimoiy tashkilot. Masalan, kitobsevarlar jamiyati. Lug‘atlarda shunday keltirilgan, soddaroq qilib aytganda, ma’lum bir hududda yashovchi, hayotiy manfaatlari bir, hamjihat insonlar to‘plami.

Sotsium lotin tilidan “shirik” degan ma’noni ifodalab, bu atama bilan atalgan odamlar jamoasida o‘zaro munosabatlar vertikal (bo‘ysunish) yoki gorizontol (hamkorlik) bo‘lishi kerak. Ikkala atama ham ijtimoiy fanlar va inson faoliyatining tegishli sohalarida qo‘llaniladi.

Masalan, qadimgi yunon mutafakkirlari qarashlarida aynan jamiyat nazarda tutilib, shunday fikrlar ilgari surilgan: Empedokl (miloddan avvalgi 341–270-yillar) fikricha, «kishilar o‘z hayotini yo‘lga qo‘yish uchun ongli ravishda uyushadilar». Aflotunning fikricha (miloddan avvalgi 427–347-yillar), «kishilar ehtiyojlariga ko‘ra bir-biriga muhtojdir». Masalaga tarixiy yondashilganda

ko‘rinadiki, «jamiyat» tushunchasi alohida XIX asrdan beri qo‘llaniladi. Qadimgi yunonlar qarashlari markazida turli tomondan taxmin qilinishi mumkin va lozim bo‘lgan Olamning tarkibiy qismi sifatida kishilik dunyosi asosan axloq va davlat fenomenlari misolida tadqiq qilingan. Ayni ana shu tushunchada kishilar hayotining boshqa sohalari ham o‘z aksini topgan. Keyinchalik ham kishilik hayoti muammolarini maxsus tadqiq etgan mutafakkirlar – J.Vikoning (1668–1744, “Millatlarning umumiy tabiati to‘g‘risida yangi fanning asoslari”), I. Gerderning (1744–1803, “Inson tarixi falsafasiga doir”) asarlarida “jamiyat” atamasi ishlatilmay, “millat” va “insoniyat” tushunchalari qo‘llangan. Faqatgina XIX asrga kelib “jamiyat” tushunchasi O.Kont, G. Spenser va boshqa mutaffakirlarning asarlarida uchray boshladi. Yuqoridagi ma‘lumotlardan quyidagi xulosaga kelish mumkin, demak, shu davrga kelib sotsiologiya fani kurtak ota boshlaydi. Til va jamiyat o‘rtasidagi aloqa haqida tasavvurlar avvaldan mavjud bo‘lgan, lekin ular bir-biridan alohida o‘rganilgan. XX asrga kelib til va jamiyat birga o‘rganilishi kerakligi ma‘lum bo‘ldi. Keyinchalik sotsiologiya fanining bir yo‘nalishi sifatida sotsiolingvistika ajralib chiqqan. Rus tilshunosligida XX asr boshlarida sotsiolingvistikaga ehtiyoj tug‘ildi, asosiy sabablaridan biri yuqorida aytib o‘tganimizdek, jamiyatdagi katta o‘zgarishlar, geosiyosat tufaylidir. Bu borada bir necha olimlarni ishini ham kuzatish mumkin. Misol uchun, S.O.Karsevskiy “Язык, война и революция” deb nomlangan ishda yangi paydo bo‘lgan so‘zlar, ma‘nolari yozilgan bo‘lib, jamiyatdagi o‘zgarishlar tilga ham ta’sir qilgani haqida aytib o‘tilgan. R.O. Shor “Язык и общество” nomli kitobida esa S.O.Karsevskiydan farqli aynan til orqali jamiyatdagi o‘zgarishlar keltirilgan, A.M. Selishev “Язык революционной эпохи : из наблюдений над русским языком последних лет (1917-1926)” inqilobdan keying yangi paydo bo‘lgan so‘zlar, ularga izohlar keltirilgan. E.D. Polivanov bo‘lib, uning tilshunoslikdagi o‘rni beqiyos hisoblanadi va shu bilan birga o‘zbek til standart alifbosini ishlab chiqqan. “О фонетических признаках социально-групповых диалектов” nomli ishda esa mavzusidan ma‘lum shevalar o‘rganilgan. Ammo davlat tizimi bu fanning chuqurroq rivojlanishiga to‘sqinlik qildi. Umumiy tilshunoslik bo‘limiga qo‘shilib ketti. XX asrning ikkinchi yarmida rus tilshunoslik maktabida strukturalizm keng rivojlanib, mazkur sohada katta izlanishlar amalga oshirilgan. Tilning ijtimoiy, jamiyat bilan bog‘liq qismiga e‘tibor katta bo‘lmagan. Shunga qaramay XX asrning 70-80-yillarida bir necha tilshunoslar sotsiolingvistikaga oid asalar yozishgan. Masalan, V.A. Avrorin “Проблемы изучения функциональной стороны языка (к вопросу о предмете социолнгвистики) уюки L.P.Krisin “Язык в современном обществе”, L.P.Krisin “Социолнгвистические аспекты изучения современного русского языка” va boshqalar. Rus tilshunosligida sotsiolingvistika rivojlanishi biroz sekin kechgan desak adashmaymiz. XX asr ikkinchi yarmida Amerikada buning asosiy sabablaridan biri afrikalik muhojirlarning ingliz tilini o‘rganishi va madaniy assimlyatsiya bilan bog‘liq harakatlar edi. Ammo, Amerika tilshunosligida esa aksi bo‘lib, fan sifatida o‘rganila boshlangan, aynan sotsiolingvistika atamasini ilk bora 1952-yil amerikalik sotsiolog German Karri qo‘llagan. XX asrning 70-yillariga kelib sotsiolingvistikaga oid maqolalar, ilmiy ishlar Amerikada keng tarqalgan. Xatto unga universal fan, barcha savollarga javob beruvchi kalit deb ham qarashdi. Amerikalik sotsiolingvistiklarning yorqin namoyondasi, asoschilaridan biri Uilyam Labov. Uning uch jildlik «Принципы языковых изменений» (Principles of Linguistic Change) asari mazkur sohadagi asosiy ishlardan biri hisoblanadi. U.Labov ushbu fanning ko‘pgina metodologiyasini yaratgan. U variatsionizm maktabini rivojlantirgan, AQSh va Kanadada keng qo‘llaniladi. Undan tashqari Dj.Fishman “Двуязычное образование. Международная социологическая перспектива”, U.Brayt, R.Xadsonlar ham mazkur fanni rivojlanishida katta hissa qo‘shgan amerikalik sotsiolingvistlar hisoblanadi.

Demak, sotsiolingvistika yangi paydo bo‘lgan sohalardan biri bo‘lib, ikki katta qism mikrosotsiolingvistika va makrosotsiolingvistikaga ajratiladi[4,312]. Mikrosotsiolingvistikaga ma‘lum bir madaniyatda:

- so‘zlashuv jarayonidagi natijaga erish yo‘llari ya‘ni qanday usullar, so‘zlar bilan tinglovchi diqqatini saqlab qolish yoki ma‘lum bir madaniyatda qanday salomlashiladi, xayrlashadi, suhbatni yakunlaydi, qanday noverbal ishoralar amalga oshiriladi
- qanday qilib insonlar o‘zaro kommunikativ malakaga erishadi, qaysi jarayonlar ta’siri ostida bu malaka o‘zgarishga yuz tutadi, yosh bolalarda bu jarayon qanday kechadi

- tilga bo'lgan munosabat ya'ni ona tilini yuqori qo'yish yoki til mavqeidan kelib chiqib ularni tabaqaga ajratish

- tinglovchining ijtimoiy mavqeiga qarab til va undagi so'zlarni tanlash qoidalarini o'rganadi.

Makrosotsiologiya ma'lum bir mintaqada:

- til vaziyatini o'rganish, ikki tillik (bilingvizm) jamiyatda ularning o'zaro ta'sirini

- o'rganilayotgan tilni boshqa til yoki madaniyat bilan to'qnashuvidan keying holatini, undagi ta'sir doirasini

- til bilan bog'liq ziddiyatlar ya'ni asosan siyosiy qarashlar bilan bog'liq sabablarni

- jamiyatdagi o'zgarishlar pirovardida tildagi o'zgarishlarni o'rganadi.

Demak, mikrosotsiologiya ma'lum bir jamiyatda, vaziyatda individual o'zgarishlarni o'rgansa, makrosotsiologiya guruhlardagi o'zgarishlarni tahlil qiladi.

Sotsiologiyaning asosiy o'rganadigan muammolari quyidagilardan iborat:

- Til va madaniyat;

- Til va millat;

- Bilingvizm;

- Til siyosati

- Til vaziyati, ya'ni ekzoglas va endoglas guruhlariga ajratib o'rganiladi;

- Tilning sotsial differentsiyasini;

Sotsiologiyada mikrosotsiologiya ma'lum bir jamiyatda, vaziyatda individual o'zgarishlarni o'rgansa, makrosotsiologiya guruhlardagi o'zgarishlarni tahlil qiladi.

Sotsiologiya predmeti inson va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik bo'lsa, obyekt til tizmining ijtimoiy jihatdan aniqlangan o'zgaruvchanligi, boshqachasiga aytsak, bir tilning sotsiumda, shevalarda, og'zaki nuqtadagi ko'rinishlaridir.

Hozirda sotsiologiyaning e'tibori tilning o'ziga, uning ichki tuzilishiga emas, balki u yoki bu jamiyatni tashkil etuvchi odamlarning tildan qanday foydalanishiga qaratilmoqda. Bunda tilning qo'llanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha omillar – so'zlovchilarning o'zlarining turli xususiyatlaridan (ularning yoshi, jinsi, ta'lim va madaniyat darajasi, kasb turi va boshqalar) ma'lum bir nutqning xususiyatlarigacha e'tiborga olinadi.

Sotsiologiyaning mohiyati quyidagi asosiy xususiyatlar bilan belgilanadi:

- til ijtimoiy hodisa bo'lib, faqat ijtimoiy tushuncha sifatida qaraladi;

- til muloqot vositasi sifatida psixo-fiziologik hodisa emas, chunki psixik hodisa muloqot vositasi bo'lishi mumkin emas;

- til ijtimoiy hodisadir; u ijtimoiy omil sifatida xalqqa, ya'ni shu tilda so'zlashuvchi jamoaga tegishlidir.

Sotsiologiya metodlariga keladigan bo'lsak, bu yerda hech kimga sir emaski, asosiy qism sotsiologiyadan qabul qilingan. Bular, kuzatuv, anketalar, test va intervyular[3,148]. Hozirgi kunga kelib yana konversatsion analiz metodi ham intervyular jarayonida qo'llanilmoqda. Albatta bu ma'lumotlarni yig'ish metodi hisoblanib, ikkinchi bosqichda ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqib, ularni guruhlariga, tiplarga ajratish kerak bo'ladi. Shu bilan birga har bir sotsiologiyatik tahlilning o'z gipotezasi (taxminiy natija) bo'ladi. Aynan tadqiqotchi olmoqchi bo'lgan ma'lumot va gipotezadan kelib chiqib anketa, test yoki intervyu savollari tuzib chiqiladi. Sotsiologiyaning so'rov instrumentlari asosan ikki turga bo'linadi: anketa so'rovi va intervyu. Anketa so'rovi deganda insonlardan oldindan tayyorlangan so'rovnomalar asosida ma'lum obyektiv faktlar, voqea, hodisa va shaxslar to'g'risida fikr olish jarayoni tushuniladi. Sodda qilib aytganda, anketa so'rovi – anketa asosida suhbat qilishdir. Intervyu- intervyu o'tkazuvchi (intervyuyer) tomonidan intervyuda ishtirok etayotgan shaxs (respondent)dan muayyansavollarga javob olishga yo'naltirilgan verbal-kommunikativ metod sanaladi. Sodda qilib aytganda, intervyuyer bilan respondentning muloqoti tushuniladi. Yuqoridagi metodlardan anketa eng ko'p qo'llanuvchi metoddir.

XULOSA.

- Sotsiologiya tilshunoslikning nisbatan yangi sohalardan biri;

- Sotsiologiya zamonaviy fan bo'lsada, u bilan bog'liq qarashlar (yozma manba) XVII asrga borib taqaladi;

- Sotsiolingvistika ikki qayta dunyoga kelgan fan hisoblanadi. XX asr birinchi choragida rus tilshunosligida, XX asrning ikkinchi choragida Amerikada asos solinib, hozirgi kunga qadar rivojlanib kelmoqda;
- Sotsiolingvistika ikki katta qismdan iborat Mikrosotsiolingvistika va makrosotsiolingvistika;
- Kuzatuv, test, intervyu, anketa, konversatsion analiz metodlar.

Adabiyotlar ro'yxati

1. В.И.Беликов, Л. П. Крысин. Социоллингвистика. - Российский государственный гуманитарный университет, 2001.- ISBN 5-7281-0345-6
2. М. Джусупов. Антропоцентризм в триединстве человек — язык — социум и его выражение в пословицах // International scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2023, No 5(52).- С.122-142.
3. С.В. Клеменчук. О методах социоллингвистического исследования, Альманах современной науки и образования//Тамбов: Грамота, 2010. No 3 (34): в 2-х ч. Ч. II. С. 148-148. ISSN 1993-5552
4. Словарь социоллингвистических терминов / отв. ред. В.Ю. Михальченко. –М.: Институт языкознания РАН, 2006. –312 с.
5. Швейцер А.Д. Современная социоллингвистика. Теория. Проблемы. Методы. М. 2009.
6. <https://izoh.uz/word/marafon>
7. https://ozlib.com/901277/sotsium/frantsuzskaya_sotsiologicheskaya_shkola
8. социоллингвистика и другие лингвистические дисциплины
9. <https://sociolinguistics.ru/index.php/sociolinguistics/article/download/270/244/689>
10. <https://studwood.net>

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000